



Received: May 19, 2023
Accepted: June 24, 2023
Available online: June 25, 2023

Muxtasar Radjabova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

ARAB TILIDA YOZUV KO'NIKMASI VA UNING XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Bugun BMT qoshidagi dunyoning oltita yetakchi tillaridan biri – arab tilini xorijiy til sifatida o'rganish ommalashib bormoqda. Albatta, arab tilini o'rganish mutaxassislarning ushbu tilda o'zaro axborot almashish jarayonida nafaqat og'zaki nutq, balki o'z fikrini yozma ravishda izchil bayon qila olish kabi yozma nutq malakalariga ham ehtiyojini kuchaytirmoqda. Sababi – hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi ishbilarmonlik va xalqaro diplomatik munosabatlarda yozma nutqiy muloqotning roli o'sib bormoqda.

Mazkur tadqiqot maqsadi – mutaxassislarning arab yozuvi va arab yozma nutqiga bergan ta'riflariga tayanib, ushbu ko'nikmaning boshqa tillardan farq qiluvchi – o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berishdir.

Tadqiqotning vazifalari esa arab tilida (1) "كتابة", ya'ni "yozuv" atamasining lug'aviy ma'nosini arab tilshunos olimlarining fikrlariga tayanib izohlash, yozma nutq va og'zaki nutq o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarini tahlil qilish hamda (2) yozuv ko'nikmasining boshqa nutq faoliyati turlari bilan bog'liqligi, aynan arab tilida yozuvning (3) gapirish, eshitish va o'qish uchun asosiy vazifasini bajarishini ko'rsatib berish bo'ldi. Tadqiqotimizda biz "yozuv" va "yozma nutq" atamalarini tahlil qilishda arab olimlarining tadqiqot ishlaridan, shuningdek, ilmiy adabiyotlar va izohli lug'atlardan foydalandik. Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko'ra, arab grafikasi boshqa chet tillaridagi yozuv bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lmaganligi bois, arab yozuvini o'rgatishda talabalar tomonidan ular ilgari o'rgangan tillaridagi yozuv bilan bog'liq ko'nikmalarga tayana olmaymiz. Bir

Muxtasar Radjabova

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: muxtasarradjabova1985@gmail.com

ARABIC WRITING SKILL AND ITS CHARACTERISTICS

ANNOTATSIYA

Today, learning Arabic as a foreign language, which is considered one of the UN functioning languages, is becoming popular among language learners. Of course, learning the Arabic language increases the need for specialists not only for oral speech, but also for written speech skills such as the ability to express one's thoughts coherently in writing.

The main goal of our research was to show the specific aspects of this skill that differ from other languages, based on the definitions given by scholars to writing and written speech in Arabic.

The tasks of our article are to explain (1) the dictionary meaning of the term كتابتك ("kitaaba"), which means "writing" in Arabic, based on the opinions of Arabic linguists, (2) to analyze the differences and similarities between written and oral speeches, and (3) to show that the writing skill is related to other types of speech activity, and that writing serves as the basis for speaking, listening and reading in Arabic. In our study, we used the research works of Arabic scholars, as well as scientific literature and explanatory dictionaries, to analyze the terms "writing" and "written speech". According to the results obtained during the research, since Arabic graphics have nothing in common with the writing of other foreign languages, we cannot rely on the skills related to writing in the languages previously learned by students in teaching Arabic writing. Also, if students do not develop writing skills in the early stages of the Arabic language acquiring, they will have difficulty in learning the remaining speech activities, because of the fact that writing is one of the foundations of learning Arabic.

Key words: the Arabic language, writing,

qancha murakkab xislatlarni o'z ichiga olgan arab yozuvini o'rganish va bu tilda fikrni yozma bayon qilish talabalar uchun bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, arab tili ta'limining ilk bosqichlarida talabalarda yozuv ko'nikmasi shakllantirilmasa, ular qolgan nutqiy faoliyat turlarini o'rganishga qiynaladilar, sababi yozuv arab tilini o'rganishning asoslaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: arab tili, yozuv, yozma nutq, orfografiya, husnixat, og'zaki nutq, o'qish ko'nikmasi, eshitish ko'nikmasi.

written speech, orthography, calligraphy, spelling, reading skills, listening skills.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar mutaxassislarning har tomonlama bilimli bo'lishini, jahon hamjamiyatida erkin faoliyat yuritishini taqazo qilmoqda. Bu borada respublikamizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, talabalarda yangi tillarni o'rganishga qiziqish uyg'otish va bu tillarni chuqur, sifatli o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, arab tilini o'rganishga bo'lgan eptiyoj kundan kunga ortmoqda. O'zbek tilining o'z tarixida bosib o'tgan taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, bu tilning boshqa tillar bilan, ayniqsa, arab tili bilan doimo yaqin aloqada bo'lganligi kuzatiladi. Bu esa nafaqat o'zbek tilining lug'at tarkibiga, balki uning grammatik qurilishiga ham ta'sirini o'tkazgan. Ma'naviyatimiz, qadriyatlarimiz va o'tmishimizni aks ettirgan ilmiy-adabiy asarlarning aksariyati arab tilida. BMT qoshidagi dunyoning oltita yetakchi tillaridan biri – arab tilini va bu ushbu tilning yozuvini o'rganish ilm-fan taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlarni ochadi.

Arab tili o'zlashtirish xususiyatiga ko'ra boshqa xorijiy tillardan bir qancha xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Bu birinchi navbatda, arab yozuvi va fonetikasiga tegishli. Arab tilida nutq faoliyati turlari gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalari orasida yozuv ta'limning ilk bosqichida talabalarda bir qancha qiyinchiliklarni tug'diradi. Sababi – arab yozuvi talabalar tomonidan ilgari o'rganilgan tillar yozuvining hech biriga o'xshamaydi. Biroq, arab tili mutaxassisini tayyorlash tizimida yozuv ko'nikmasi muhim o'rin tutadi, chunki yozuv leksik va grammatik materialni, shuningdek nutq faoliyatining boshqa turlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, og'zaki nutqning rivojlanishi ko'p jihatdan yozma nutqni rivojlantirish vazifalari bilan bog'liq.

Avvallari turli xil ta'lim dargohlarida xorijiy tillarni o'qitishda yozuvga maqsad sifatida qaralmagan. Balki yozuv ta'lim vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Ammo 20-asrning 60-yillariga kelib, xorijiy til o'qitish va o'rganish dasturlariga o'zgartirish kiritildi, ya'ni unga yana bir talab qo'shildi. Endilikda yozuv faqatgina ta'lim vositasi bo'lib qolmasdan, chet tillarini o'qitishning maqsadi sifatida ham belgilandi. Bunga ko'ra, til o'rganuvchilar xorijiy do'stlariga va tanishlariga xat yozish kabi yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishlari ham kerak bo'ladi. Olimlar orasida yozuv ta'limning maqsadi yoki vositasi ekanligi borasida olib borilgan turli xil fikr va

mulohazalar mavjud. Bu haqida O.V. Kudryashova shunday fikrni bildiradi: “Afsuski, zamonaviy ta’limda yozma nutqqa emas, balki yozuvga katta ahamiyat beriladi. Yozuv ko’nikmasi ta’lim maqsadi emas, balki vosita sifatida gavdalanadi. Darslik va o’quv qo’llanmalarida chet tilida yozma nutqiy asar yaratishga bosqichma-bosqich yondashilmagan” [Kudryashova, 2005; 3].

Bu borada, J.Jalolov yozuv chet tilini o’rgatishda ham vosita, ham maqsad ekanligini ta’kidlab o’tadi [Jalolov, 2012; 283]. Har bir millat va xalq o’zining yozuv va xat tarixiga ega. Islomiyatning ilk davrida, yozuv malakasiga ega insonlar Makkada ozchilikni tashkil qilgan. Yozuvni biladiganlar o’z davrining hurmatga sazovor shaxslari hisoblanganlar. Islom dini keng tarqalib, buyuk islom davlatlari barpo bo’lgach, yozuvning ahamiyati yanada ortdi. Arab yozuvi san’ati turkiy xalqlar imperiyasi davriga kelib kamolot cho’qqisiga ko’tarila boshladi. Yozuvda shuhrat qozongan xattotlarning aksriyati ilmiy, dunyoqarashi keng, san’atning boshqa sohalariga aloqador insonlar edilar [Jo’mon, 2010; 42].

Afsuski, bir qancha obyektiv sabablarga ko’ra, yozma nutq yaqin vaqtgacha o’zining ahamiyati va imkoniyatlari darajasida chet tili ta’limida munosib o’rni topa olmagan. Chet tilini o’qitish metodikasida yozma nutqni o’zlashtirish jarayoniga uzoq vaqtni talab qiladigan juda murakkab jarayon sifatida qaralgan. Shu sababli dastur va xorijiy tillar uchun me’yoriy hujjatlarda “yozma nutq” atamasi o’rniga “yozuv” qo’llanilgan. Shuningdek, unga nazorat vositasi va til ko’nikmalarini shakllantirishga hissa qo’shadigan va nutq faoliyatining boshqa turlarini o’zlashtirishga yordam beradigan yordamchi vosita sifatida qaralgan.

Har qanday tilda fikrlarni yozma bayon qilish ikki yo’l bilan amalga oshiriladi: birinchisi – o’z fikri orqali yozma matn tayyorlash, ikkinchisi – o’z g’alalar nutqini qayd qilib yozma axborot shakllantirish.

Talabalarning arab tilida o’z fikrini yoki o’z g’alalar nutqini imlo qoidalariga rioya qilgan holda aniq, o’zaro izchil va uzviy bog’liqlikda ifodalash yozma nutqning zarur xususiyatlaridan biridir. Arab tilini o’qitishning boshlang’ich bosqichida, bizningcha, yozish malakalarini o’zlashtirmasdan turib, o’quvchilarda o’qish, gapirish va tinglash ko’nikmalarini shakllantirish qiyin bo’ladi, zero, arab yozuvi arab tilini o’rganishning asosidir.

Arab tilini o’rganayotgan talabalar uchun eng dolzarb muammo kalligrafik to’g’ri yozishni o’zlashtirish masalasidir. Arab undoshlarining so’zdagi joylashuviga qarab (boshida, o’rtasida, oxirida yoki alohida holatda) turlicha yozilishi ularni o’zlashtirishda qo’shimcha qiyinchiliklar tug’diradi. Arab tilini muvaffaqiyatli o’rganish ko’p jihatdan talabani arab yozuv texnikasini qanchalik yaxshi o’zlashtirganiga bog’liq. Shuning uchun mashg’ulotning boshidanoq yozishga katta e’tibor berish muhimdir [Ibragimov, 2004; 20].

TADQIQOT USULLARI

Ushbu tadqiqotda arab tilida ma’lumotlar to’plashda shu tilda yozilgan ilmiy maqolalarga, tadqiqot ishlariga hamda arab tilshunos va metodist olimlari o’rtasida olib borilgan so’rovnomalarga tayandik. O’qituvchilar o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma

savollari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Sizningcha, talabalarda arab tilidagi nutqiy faoliyatning qaysi turi yaxshiroq rivojlangan?

2. Sizningcha, arab tilida talabalarning yozuv texnikasini o'zlashtirish bo'yicha eng ko'p qiyinchilik tug'diradigan imlo birliklari qaysilar?

3. Arab tili fanidan tuzilgan o'quv-dasturlarda yozuv ko'nikmasining mezon va talablari alohida ko'rsatilganmi va bu masalada sizning fikringiz qanday?

4. Talabalar arab tilida matn, bayon, hikoya yoki insho yozganlarida qanday qiyinchiliklarga ko'proq yo'l qo'yadilar?

5. Arab tili fanida yozma nutq mashqlarining qaysi turi ko'proq qo'llaniladi?

6. Arab tilida talabalarning yozma nutqini shakllantirish yuzasidan takliflaringiz?

O'tkazilgan so'rovnomada natijalarini inobatga olgan holda, arab tilida yozuv va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishdagi bir qancha muammolar aniqlandi.

Arab tilida yozuv to'rtta nutq faoliyati turlari orasida alohida ahamiyatga ega. Yozuv yozayotgan shaxsning o'zini yoki o'zga insonning ongidagi fikrlarni, qalbdan kechayotgan his-tuyg'ularni yozma ravishda ifodalaydi. Bu ko'nikmani tovushlar orqali harflarni o'rganmasdan turib shakllantirib bo'lmaydi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Yozuv nimani anglatishi haqida ko'plab nazariyalar mavjud, jumladan, L.R. Zinder kitobida berilgan eng umumiy ta'rif shunday: "Yozuv deganda, makon va vaqt doirasi bilan cheklanmagan holda odamlarning muloqoti ta'minlanadigan shartli moddiy belgilar tizimi tushuniladi" [Kreer, 2007; 13].

L.Blumfeld o'zining "Til" nomli kitobida yozuvning til emasligini, balki oshkora belgilar yordamida tilni yozish usuli ekanligini ta'kidlaydi [Kreer, 2007; 29]. Tadqiqotchi N.Umarova fikricha, "yozuv" atamasi turli ma'nolarga dalolat qiladi, yozuv, bu – avvalambor, inson nutqini grafik belgilash maqsadida foydalaniladigan belgilar tizimi, ikkinchidan, nutqni qayd qilishga yo'naltirilgan faoliyat, uchinchidan, ma'lum bir yozma janr (rasmiy xat), to'rtinchidan, yozuv insonning dastxatini anglatadi. Shuningdek, tadqiqotchi yozuv atamasini nutq va uning qismlarini grafik shaklda belgilashga yo'naltirilgan faoliyat deb ta'rifladi, yozma nutqni insonning o'z fikrini yozma tarzda bayon qilishi bilan bog'liq faoliyat deb hisoblaydi [Umarova, 2007; 72].

Yozuv mexanizmi deganda, yozuv nimalar orqali amalga oshishi tushuniladi. Mashhur psixolog N.Jinning ta'kidlashicha, yozuv mexanizmi ikki bosqichdan iborat:

1) harflardan so'z yasash;

2) so'z va so'z birikmalaridan yozma axborotlar tuzishdan tashkil topadi.

O'.Hoshimov va I.Yoqubov yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda yozuv mexanizmi dastlabki bosqich asosida malaka darajasiga yetkazilishi lozim bo'lgan yozuv va imloni egallash, keyingi bosqichda esa fikrlarni ma'lum yozuv kodi orqali bayon qilish, ya'ni nutq ko'nikmasini egallash, deb hisoblaydilar [Hoshimov & Yoqubov, 2003; 183].

N.V. Samarina chet tildagi yozma nutq kompetensiyasi deganda, talabalarning

chet tildagi yozma nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti sifatida til bilimlari va nutqiy ko'nikmalar to'plamiga ega bo'lishlari tushunilishini, muloqot holatiga mos keladigan chet tildagi yozma matnni shakllantirish ekanligini ta'kidlaydi [Samarina, 2016; 11].

Metodist olimlardan biri R.P. Milrud o'zining "Xorijiy yozma nutqni o'rgatish metodikasi" kitobida yozma nutq jarayonini yozma so'z ustidagi maqsadli va ijodiy fikr deb izohlaydi, shuningdek, yozma nutqni til belgilari yordamida fikrlarni ifodalash usuli deb ta'riflaydi [Milrud, 1997; 5].

M.Y. Kreyerning ta'kidlashicha, yozma nutqni o'rgatishning maqsadi – o'quvchilarning yozma kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Bu vazifalar talabalarda zarur grafik avtomatizmlarni, nutqiy fikrlash ko'nikmalarini va yozma uslubga muvofiq fikrni bayon qilish qobiliyatini shakllantirishni, bilim va dunyoqarashni kengaytirishni, yozma ishning mazmunini yaratishda intellektual tayyorgarlik madaniyatini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi [Kreer, 2007; 75].

Arab tilida yozuv "كتاباتك" [kita:batun] so'zi lug'atda "كتابك" [ktb] o'zagidan hosil bo'lgan harakat nomidir. Yozmoq fe'lidan hosil bo'lgan harakat nomlari ابنتك و كتاباتك و "yozish" ma'nosidadir [Nosirov & Yusupov, 2002; 703]. Arab tilshunoslari Muborak Husayn Najmuddin va Muhammad Ahmad Usman arab tilida yozuvning asosi bir necha ma'nolarga dalolat qilishini ta'kidlaydilar:

1. Biriktirish va mustahkamlash.
2. Jamlash va bog'lash.
3. Yuklamoq (farz qilmoq) ma'nosida [Husayn, 2013; 2].

Arab tilini o'qitishning boshlang'ich bosqichida "Arab tilini egallash" atamasi ostida biz arab tilini o'rganish va uni takomillashtirish uchun asos bo'lgan kommunikativ faoliyatning asosiy turlarini (yozish, o'qish, gapirish va tinglashni) tushunamiz.

Malayziyalik tadqiqotchi Kamarudin fikricha, arab tilida كتاباتك لقرام (yozish ko'nikmasini) ni o'zlashtirishda to'rtta asosiy jarayon mavjud:

1. Grafik tizim (notatsiya).
2. Imlo.
3. Grammatik jihatdan gaplarni to'g'ri yozish.
4. Fikr va g'oyalarni yaratish.

Uning ta'kidlashicha, shu sababli butun jarayon yozish mahoratining barcha muhim omillarini – yozish texnikasi ko'nikmalarini, grammatika (morfologiya va sintaksis), til uslubi va mazmunning aniqligini o'z ichiga oladi [Abdulaziz, 2015; 17].

Arab tilshunoslari yozuvga turlicha yondashgan holda quyidagicha ta'riflarni keltiradilar:

Yozuvning san'at sifatidagi ta'rifi. Yozuvni san'at sifatida e'tirof etadiganlardan Al-Qoshandiy shunday deydi: "Yozuv – tizimlash orqali muayyan maqsadga dalolat qiluvchi jismoniy harakat bilan namayon bo'ladigan ruhiy san'atdir" [Husayn, 2010; 82].

Abu Hilal Askariy esa o'z kitobini ikki san'at, ya'ni "Yozuv va she'r" deb nomlagan. Bu fikrga qo'shiladiganlar orasida Ibn Xaldun shunday deydi: "Bu sharafli

san'atdir, chunki yozuv odamlarni hayvonlardan ajratib turadigan insoniy fazilatlaridan biridir. Ibn Qoyyim esa yozuv haqida quyidagicha ta'rifni keltiradi:

“U aqlda boshlanib lafz orqali o'tadi va yozuvda qaror topadi”. Ahmad Sayyid Al-Hoshimiy unga shunday ta'rif beradi: “Yozuv – ma'nolar chiqarib olish va munosib lafz bilan ibora tuziladigan fan va bu ilmga barcha fanlar suyanadi” [Husayn, 2013; 3].

Yozuv nutqni kodlash jarayoni sifatida. Yozuv ta'rifidagi ikkinchi qarash, bu – nutqni kodlash sifatidagi jarayondir. Yozuvning kodlash sifatidagi ta'riflari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yozuv, bu – lingvistik belgilarni mazmunli qilish uchun shakllantiriladigan hodisa yoki u bizning fikrimizni tilga tarjima qilib beradigan xabarni kodlash jarayonidir.

2. R.Ta'ma yozuvni belgilarni og'zaki nutqdan yozma matnga aylantirish jarayoni yoki yozuvchidan vaqt va makon jihatidan uzoq bo'lgan o'quvchiga xabar yetkazish maqsadida belgilar yig'indisi (sintezi) deb ta'riflagan [Husayn, 2013; 3].

Yozuvning aqliy jarayon sifatidagi ta'rifi. Yozuv g'oyalarni ifodalash qobiliyati jihatidan o'ziga xos murakkab jarayon. Yozuv to'g'ri shakldagi harflar, so'zlar va birikmalarda mujassamlashgan. Madomiki, yozuv aqliy jarayon ekan, u to'rtta asosiy jarayonlarga: idrok etish, tasvirlash, namoyish qilish, talqin qilishga suyanadi. Bu jarayonlar ikkita bosqichda amalga oshadi: ulardan biri yashirin ya'ni botiniy bo'lib, u tasavvurdir, ya'ni idrok. Boshqasi esa ko'rinadigan sezgi bo'lib, u asosan ochiq namoyon bo'lib turadi. Tasvirlash, namoyish qilish va talqin qilish qolgan jarayonlarda gavdalanadi [Abdulbariy, 2013; 267-268].

Yozuvning mahsulot sifatidagi ta'rifi. Bu yo'nalishdagi yozuv belgilari va tushunchalariga ko'ra, yozuvchining so'z tanlash, jumlar tuzish, ko'zlangan fikrni ifodalovchi paragrafni yozish qobiliyatiga e'tibor qaratiladi. Bu esa yozuvchining ma'nolarga mos keladigan yozuv belgilari haqidagi bilimiga asoslanadi. Yozuv shaxsning harflarni aniq, tushunarli va to'g'ri yozish (chizish) qobiliyati, shuningdek, belgilangan yozuv (imlo) qoidalariga rioya qilmoqlikdir [Muhammad, 2013; 191].

Yozuvning vazifasiga ko'ra ta'rifi. Ushbu ta'rif bir necha ko'nikmani o'z ichiga oladi:

1. Mavzu turini va chegarasini idrok etish va unga nima mos va nima mos emasligini farqlash.

2. Firklarni ketma-ket – izchillikda tartiblash.

3. Grammatik (sintaktik va morfologik) va imlo jihatdan uslubni to'g'irlash.

4. Ma'nolarga mos kelish.

5. Fakt va ma'lumotlarni bog'lash [Husayn, 2013; 4].

Arab tilida yozuv ko'nikmasi ikkiga bo'linadi:

■ arab harflari va arab tilidagi so'zlarni yozish mahorati;

■ arab grammatikasiga muvofiq gap yozish mahorati [Badruzzaman, 2013; 34].

Olimlar grafikani harf, harf birikmalarini yozish jarayoni deb ta'kidlaydilar, so'zlarni xatosiz, imlo qoidalariga rioya qilib yozishni orfografiya, tinish belgilarini to'g'ri qo'yishni punktuatsiya, husnixatni kalligrafiya ekanligini ta'riflab o'tadilar. Shu

nuqtayi nazaridan, yozuv mazmuniga birinchidan, grafika, orfografiya, punktuasiyani o'rgatishni o'z ichiga olgan yozuv texnikasi, ikkinchidan, fikrni yozma bayon qilish kiradi [Hoshimov & Yoqubov, 2003; 182].

Arab tilida yozuv nafaqat yozma nutqqa o'rgatish vositasi, balki bu tildagi boshqa nutq faoliyati turlariga o'rgatish vositasi ham sanaladi. Yozuv va yozma nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo arab tilini o'rganishning dastlabki bosqichida ushbu muhim vazifani bajarish uchun talabalar yozish texnikasini egallashlari, arab harflarini to'g'ri biriktirish va bu tilning imlosini puxta o'rganishlari kerak.

Arab yozuvi lotin va kirill alifbosidan keskin farq qiladi. Bu yozuvni o'rgatishda biz talabalar tomonidan oldin o'rganilgan tillaridagi yozuv bilan bog'liq ko'nikmalarga suyana olmaymiz. Sababi – arab grafikasi bular bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Bu esa ta'limning ilk bosqichida talabalarda psixologik qiyinchiliklarni tug'diradi. Arab yozuvining o'ziga xosliklaridan biri – o'ngdan chapga qarab yozilishidir. Shuningdek, bu tilda bo'g'in ko'chirilmaydi. Alifboda 28 ta harf bo'lib, harflarning 22 tasi so'z tarkibida o'zidan keyingi va oldingi harflarga qo'shib yoziladi, 6 tasi esa faqat o'zidan oldingi harfga ulanadi, o'zidan keyingi harfga ulanmaydi. Har bir harf boshqa harfga ulangan va ulanmaganligiga qarab turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Harflar satr ustiga yoki satr ostiga yozilishi bilan ham o'zaro farqlanadi va bir-biriga kichik chiziqlar yordamida birikadi. Qisqa unilarni anglatuvchi harflar ham alifboda yo'q.

Ko'rinib turibdiki, arab alifbosi talaygina o'ziga xosliklarga ega va u lotin alifbosi tizimidan farq qiladi. Arab yozuvining lotin yozuvidan eng asosiy farqi uning o'ngdan chapga qarab yozilishidir. Lotin alifbosida uzun va qisqa unililar, undoshlarni ikkilantiruvchi belgilar mavjud emas. O'zbek tilida arab tiliga qaraganda harflar soni ko'p. Biroq arab tilidagi ba'zi tovushlar o'zbek tilida mavjud emas. Shu sababli talabalar arab tilidagi tovushlarni o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Buni bartaraf qilish uchun ta'limning ilk bosqichida talabalarga harflarni to'g'ri yozish bilan birga emfatik tovushlar kabi talaffuzi qiyin arab tovushlarini to'g'ri talaffuzi o'rgatilishi lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, arab tilini o'rgangunga qadar va o'rganishning ilk bosqichida, odatda, talabalar yuqori motivatsiyaga ega bo'ladilar. Ular arab tilida yozishni, o'qishni, arab mamlakatlari madaniyatini o'rganishni xohlaydilar. Biroq, vaqt o'tishi bilan talabalarining tilga munosabati o'zgaradi, ko'pchilikning hafsalasi pir bo'ladi. Zero, bu jarayon murakkab va uni yengib o'tishda talabalar bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Birinchisi, bu – arab tili fonetikasi. Sababi – u murakkab xalqum va emfatik tovushlardan iboratdir. Ikkinchisi – arab yozuvi. Bu yozuv talabalar tomonidan ilgari o'rganilgan yozuv tizimlari (asosan lotin yoki kirill) dan keskin farq qiladi, uchinchisi – arab tili grammatikasi. Arab tili grammatikasini o'zbek va ingliz tillari grammatikasiga solishtirganda, hech qanday umumiylik yo'qligini kuzatiladi. Natijada talabalarda motivatsiya pasayadi, faollik yo'qoladi, arab tilini o'zlashtirish istagi zaiflashadi.

Shu sababli, arab tilini o'rganishning boshlang'ich bosqichida talabalar qo'llab-quvvatlashga ya'ni motivatsiyaga juda muhtoj, bu esa albatta o'quv jarayonini

shakllantirishda e'tiborga olinishi kerak. Arab tilini o'rganishda motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Bu talabalarni arab tilini o'rganish, o'rganishni davom ettirish va muvaffaqiyatga erishishga, shuningdek, arab tilida yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Arab yozuvini o'rganish motivatsiyasi har bir talaba uchun individual bo'lishi mumkin, shu bois ularga yordam berishda qiziqishlarini hisobga olish va qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu yo'lda o'qituvchi talabalarga arab tilida yozishni o'rganish nima uchun zarurligini, bu tildagi yozuv ular uchun boy madaniyat, adabiyot va arab tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilishga xizmat qilishini tushuntira bilishi lozim.

Asrlar davomida arab yozuvining bir-biridan harflarning shakllari, bir-biriga ulanishlari, chiziqlarning qalinligi, uzunligi bilan ajralib turuvchi har hil turlari paydo bo'lgan. Shu sababli arab yozuvining *kufiy, suls, riq'a, nasx, ta'liq, nasta'liq* va *rayhoniy* kabi bir qancha turlari tarqaldi.

Darsliklarda ko'rinishi sodda va ommaviy axborot vositalarida boshqa yozuvlarga nisbatan ko'p ishlatiladigan "nasx" xatidan foydalaniladi [Hasanov, 2019; 13].

Shuningdek, arab yozuv turlari orasida "nasx" bilan bir qatorda "riq'a" xati keng tarqalgan. "Riq'a" xati "nasx" xatiga qaraganda bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Ulardan biri, talabalar uchun zarur bo'lgan tez yozishga o'rgatishdir. Masalan, harf ustidagi ikki nuqta chiziqcha bilan ifodalanishi mumkin, uch nuqtani esa yarim diora orqali berish mumkin [Ibragimov, 2003; 111].

Arab yozuvi harflar, so'zlar va jummalarning juda ifodali yozilishi bilan ajralib turadi. Odatda, arab tilida yozilgan matnlar bezak elementlari bilan uyg'unlashgan. Arab yozuvini yuksak san'at desak mubolag'a bo'lmaydi [Djaber & Kalinin, 2017; 1].

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos strukturaviy va mantiqiy xususiyatlarni o'zida jamlagan grammatik tizimga ega. Shu nuqtayi nazardan arab tilida yozma nutqni shakllantirishda ana shu xususiyatlarni e'tiborga olgan holda grammatik shakllarni nutqda qo'llash juda muhimdir.

Tadqiqotchi Z.Munir fikricha, umuman yozishni o'rgatish o'zaro bog'liq bo'lgan, lekin ta'lim jarayonida ma'lum bir ketma-ketlikda olib boriladigan uchta uslubiy vazifadan iborat. Birinchi vazifa yozish texnikasini o'rgatish bilan bog'liq. Ikkinchi vazifa – tilda muayyan matnlarni yaratishga doir bo'lgan nutq. Uchinchi vazifa – talabalarga kurs tugagandan so'ng ularning faoliyati bilan belgilanadigan yozma janrlarda yozuvni muloqot kanali sifatida ishlatishni o'rgatish [Munir, 1985; 12].

Bu borada O.V. Kudryashova yozma nutqni o'qitishda uch bosqichni bosib o'tish zarurligini ta'kidlaydi:

- grafika va orfografiyani ya'ni yozuv texnikasini egallash;
- jummalarni strukturaviy modellarini o'zlashtirish;

■ yozma nutqni muloqot vositasi va ta'lim maqsadi sifatida egallash [Kudryashova, 2005; 14].

Arab tilida yozuv bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish yozma nutqni o'rgatishdagi birlamchi vazifa bo'lishi lozim. Yozuv texnikasiga xos bo'lgan

ko'nikmalarni hosil qilmasdan turib yozma nutqni o'stirib bo'lmaydi, chunki yozma nutq harflar, tinish belgilariga bevosita bog'liq va u fikrni yozma ifodalashda imlo qoidalariga so'zsiz amal qilishni talab qiladi.

Shuningdek, yozma nutqning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish nutq faoliyatining boshqa turlaridan, ayniqsa, og'zaki nutqdan ajralgan holda amalga oshirilishi mumkin emas. Bu borada M.Rixsiyeva fikr yuritib, aynan og'zaki nutq yozma nutq ko'nikmalarini shakllanishiga ko'maklashishini, hamda og'zaki nutq yozma nutqdan oldin sodir etilishini, yozma nutq esa aynan fikrni og'zaki bayonida aniq, izchil, to'g'ri ifoda etilishiga yordam berishini o'z tadqiqotida keltirib o'tadi [Rixsiyeva, 1998; 92]. Biroq, nutqiy faoliyatning reproduktiv turiga kiruvchi og'zaki va yozma nutqning muloqot jarayonida fikrni bayon qilish vositalari bir-biridan farq qiladi.

Z.Salisheva tilning verbal shakli hisoblanuvchi og'zaki nutq noverbal shakllar bilan ham uzviy bog'liq ekanligini, yozma nutq esa og'zaki nutq asosida rivojlanib, sintaktik jihatdan to'liqligi va ancha mukammalligi bilan tavsiflanishini e'tirof etadi [Salisheva, 2019; 13].

Y.M. Kolker qog'ozdagi so'zlar xatolarni og'zaki nutqdan ko'ra yaxshiroq ko'rsata olishini, yozma matnda noto'g'ri tanlangan so'zlar, murakkab jumlar, o'rinsiz tanlangan iboralar osongina aniqlanishini va tuzatishni talab qilishini ta'kidlaydi [Kaplich, 1996; 7].

Tadqiqotchi Z.Munir ko'rsatganidek, yozma nutq o'ziga xos psixologik xususiyatga ega va maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Og'zaki nutqni bevosita muloqot jarayonida o'rganish mumkin bo'lsa, yozma nutqni bu tarzda o'rganib bo'lmaydi [Munir, 1985; 27].

Yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Yozma nutqda og'zaki nutqdagi singari so'zlovchining nutqini to'ldirish, tuzatish, savollar yordamida aniqlik kiritish yoki tallaffuz ohangi, yuz ifodasi, imo-ishora, inson tana a'zolarining xatti-harakatidan foydalanish imkoniyatlari mavjud emas. Yozma nutq og'zaki nutq asosida rivojlanib, sintaktik jihatdan aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turadi. Sababi – yozma nutqda fikrni bayon qilishda qat'iy mantiqiy izchillik va bog'lanish talab qilinadi.

Tadqiqotchi N.Umarova nutqning har ikki shakli inson hayoti va faoliyatida deyarli teng o'rin egallashini ta'kidlab, og'zaki va yozma nutqning o'xshash taraflaridan biri – ularning asosini adabiy til tashkil etishini keltirib o'tadi. Shuningdek, tadqiqotchining fikricha, og'zaki nutq muallifi aksariyat hollarda og'zaki uslubdan foydalangani bois til qonun-qoidalariga amal qilavermaydi, balki unda sheva, muayyan ijtimoiy qatlamning o'ziga xos so'zlarining ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, talaffuz ohangi, maromi, inson tana a'zolarining xatti-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq esa harflar, tinish belgilari, timsollarga bevosita bog'liq bo'lib, adabiy til, imlo qoidalariga so'zsiz amal qilishni taqazo etadi [Umarova, 2007; 72].

Darhaqiqat, arab tilida nutqning har ikki shakli arab adabiy til qoidalariga bo'ysunishi lozim. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, adabiy til bilan bir qatorda har

bir arab davlati qishloq, shahar va viloyatlarning o‘z shevalari bor. Ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ularning ta’siri albatta og‘zaki nutqda namoyon bo‘ladi.

Og‘zaki nutq muallifi o‘z fikrini suhbatdoshiga ohang va turli imo-ishoralar bilan bildirishi mumkin. Yozma muloqotda esa suhbatdosh bevosita ishtirok etmaydi. Yozma nutq muallifi yozma bayon qilmoqch bo‘lgan fikrini dastlab ichida shakllantiradi. Bu borada ichki nutqning ahamiyati kattadir.

Z.Salishevaning fikricha, ichki nutq, bu – insonning ichida gapiradigan passiv nutqidir va u o‘zga shaxsning ishtirokini talab etmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan ichki nutq o‘z-o‘ziga aytilgan, odamda hosil bo‘lgan fikrlarni jamlash, taqqoslash va tanlash jarayonidan iborat nutq sanaladi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi” [Salisheva, 2019; 20].

Yuqoridagi fikrdan ko‘rinib turibdiki, yozma va og‘zaki nutq ichki nutq yordamida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Ichki nutq yozma nutqni o‘zlashtirish jarayonida eng muhim omil hisoblanadi, sababi – muallif yozish vaqtida fikrini nafaqat yozadi, balki yozganini o‘ziga o‘zi gapiradi.

Yuqorida eslatib o‘tilganidek, yozuvga berilgan ta’riflarning turfa xilligi ehtimol, bir tomondan, bu tushunchaning murakkab tabiati va boshqa tomondan, tadqiqotchilarning yozishga qaysi jihatdan yondashishlari yoki ularning qarashlari bilan bog‘liqdir. Yuqorida aytib o‘tilgan ta’riflarni umumlashtirib, yozuv san’atining bir qancha belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Yozuv kommunikativ faoliyat bo‘lib, ma’lumotlarni yetkazish yoki ko‘rsatmalar berishni anglatadi.

2. Yozish murakkab jarayon bo‘lib, bu uning tugallangan mahsulot bo‘lishidan tashqari, aqliy jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Yozuvchi biror narsani yozish uchun uchta bosqichdan o‘tishi lozim:

- rejalashtirish va yozish;
- tahrir qilish va tuzish;
- qayta ko‘rib chiqish.

3. Yozuv, bu – ma’no va mazmunlarni kodlashdir. Chunki yozuv, umuman olganda, belgilar tizimi yoki nutqni yozuv shaklida kodlashni maqsad qilgan ramziy semiotik jarayondir [Al- G‘azzoliy, 2013; 36].

4. Yozuv qoidalar bilan boshqariladigan san’at. Shuni aytish mumkinki, yozuv o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan san’at emas, balki qonun-qoida va normalar bilan boshqariladigan tizimli san’atdir.

5. Yozuv fikrlash jarayonidir. Chunki u inson, uning qobiliyati va kuchini ifodalaydigan fikr manbasidir. Shu jihatdan u og‘zaki nutqqa o‘xshaydi. Agar og‘zaki nutq o‘z muallifini ko‘rsatadigan bo‘lsa, yozuv ham yozuvchining fikri, odobi va bilimiga ishora qiladi.

6. Agar inson biror mavzuda yozmoqchi bo‘lsa, uning ma’nosi, shakli va taqdim qilish uslubi haqida o‘ylashi lozim. Bu borada Ahmad Sayyid al-Hoshimiy shunday fikr bildiradi: agar sizga biror-bir mavzuni yoritib berish taklif qilinsa, ikkita narsa sizga ishonib topshirilgan bo‘ladi. Birinchisi – fikrlash va ikkinchisi – yozish.

7. Yozuv uni ifodalaydigan tasvir va ko‘nikmalarga ega. Sababi – u aqliy jarayon.

Shuning uchun yozuv bir qator murakkab ko‘nikmlarga asoslanadi. Bu ko‘nikmlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- kirish, asosiy qism va xotimadan iborat tashkiliy ko‘nikmalar;
- fikrlash, bog‘lash va eslash bilan bog‘liq ko‘nikmalar;
- so‘zlar, jumlar, iboralar, paragraflardan foydalanish va uslublarning go‘zalligi va aniqligi bilan bog‘liq ko‘nikmalar;
- yozishning rasmiy texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan satrlar, so‘zlar o‘rtasidagi masofaga va hoshiyalarga rioya qilishdek visual ko‘nikmalar;
- imlo va yozuv qoidalariga xos ko‘nikmalar;
- jumalarni tuzish va ularni bog‘lash, morfologik va sintaktik qoidalari bilan bog‘liq ko‘nikmalar [Al-Askariy, 2009; 101].

Yozuv leksik va grammatik materialni yanada yaxshiroq o‘zlashtirish, shuningdek, o‘qish va og‘zaki nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda arab tili asosini o‘rgatish vositasi hisoblanadi. Kommunikativ faoliyat turi sifatida yozma nutqqa kelsak, u tarjimonning ham, o‘qituvchining ham kasbiy mahoratiga kiradi. Ammo arab tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida ushbu muhim rolni bajarish uchun talabalar yozish texnikasini puxta egallashlari, arab harflarini to‘g‘ri qo‘shib yozish va arab tilidagi orfografik qoidalarni o‘zlashtirishlari lozim.

Yozuv boshqa nutq faoliyati turlari – gapirish, eshitish va yozish bilan bog‘langan va ular bir-birini to‘ldirib keladi.

Gapirish ko‘nikmasi yozuv ko‘nikmasi bilan mustahkam aloqaga ega va u fikrni ifodalash mexanizmlari jihatidan har ikki ko‘nikma bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Ular o‘rtasida katta o‘xshashlik mavjud bo‘lib, bu o‘xshashlik quyidagi bir nechta jihatlarda ko‘rinadi:

- Yozuv va gapirish ko‘nikmasi ijodiy mahorat bo‘lib, inson o‘zida mavjud ilmi, dunyoqarashi yoki ehtiyoji, xohish-istagi, g‘am-g‘ussa va qayg‘usini ifodalashda undan foydalanadi.

- Har ikki – yozuv va gapirish ko‘nikmalarining tayanchi leksik tovushlardir. Abu Homid G‘azzoliy aytganlaridek, “Xat (yozuv) lafzga ishora qiluvchidir. Lafz esa ma’noga ishora qiladi. Yozuvchi biror-bir ma’noni uni ifodalaydigan lafzga ko‘chiradi. Keyin lafzdan xatga (yozuvga) ko‘chadi. Bu aqliy jarayon bo‘lib, unda tahlil orqali umumiy ma’nodan ko‘chish sodir bo‘ladi. So‘ng esa yozuvchi uni qaytadan yana bir marta o‘zaro bog‘langan, yozilgan lafzlar (matnlar)da jamlaydi.

- Darhaqiqat, gapirish mahoratining ajralmas qismlari, bu – yozuv mahoratining ajralmas komponentlaridir. Har ikki ko‘nikma egasi yozuvchi ham so‘zlovchi ham oldindan yozish va gapirish orqali ifodalomoqchi bo‘lgan maqsadlarini, mavzularini aniqlab olmog‘i zarur. Xuddi, shuningdek, u fikrlarni aniqlashi, ifodalomoqchi bo‘lganlarini saralamog‘i lozim.

- So‘zlovchi shaxs o‘z fikrini tushuntirish va sharhlash uchun ovoz ohangida rang berishdan, shuningdek, belgi-ishoralardan, yuz ifodalaridan (tana tilidan) foydalanadi. Yozuvchi esa tushuntirish va sharhlashda urg‘u va intonatsiyaga ishora qiluvchi tinish belgilariga: nuqta, vergul, undov va so‘roq hamda boshqa belgilarga qo‘llash uchun murojaat qiladi [Husayn, 2013; 9].

Arab tilini o'qitishning dastlabki bosqichida o'qish va yozishni o'rgatish deyarli parallel ravishda amalga oshiriladi: yozilgan hamma narsa o'qiladi, o'qilgan deyarli hamma narsa yoziladi.

Yozuv o'qitish vositasi bo'lib, arab tilini o'rganishning dastlabki bosqichida muhim rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda asosiy vazifa yozishni o'rgatishdir, chunki bu davrda xattotlik ko'nikmalari va tovush-harf munosabatlari bilan bog'liq ko'nikmalar shakllanadi. Bu ko'nikmalar o'qish va yozishni shakllantirishning zaruriy shartidir. Dastlabki bosqichda yozma nutq og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shish vositasi sifatida rivojlanadi. Bundan tashqari, yozma nutq yana bir muhim vazifani egallaydi – u o'quvchilarning til bo'yicha mustaqil ishlarida, xususan, o'qigan matnlarga izoh va rejalar shaklida yordamchi vositaga aylanadi [Ibragimov, 2004; 21].

Bu borada Muhammad Komil an-Nakah talabalar o'qigan materialini asosida matn yozishlari kerakligini, bundan tashqari, ular o'zlari eshitgan, ko'rgan va o'qigan voqea haqida yozma hisobot tayyorlashlari mumkinligini tavsiya etadi [Abdulaziz, 2015; 23].

Yozuvning o'qish bilan o'zaro boglanganligi sabablaridan biri – har ikkisinin negizini grafik sistema tashkil etishidir. Yozuvda oqishdagi kabi tovush-harf munosabatlari yo'lga qo'yiladi, faqatgina ularning har ikkisi turli yo'nalishga ega, ya'ni yozuvda tovushdan harfga, o'qishda esa harfdan tovushga yo'naltiriladi. Ya'ni yozuvda fikrni kodlashtirish, o'qishda esa fikrni dekodlashtirish tushuniladi [Rogova, 1991; 162-163].

Eshitib tushunish jarayoni aqliy ongli faoliyat sanaladi. Mana shu joydan yozuvning eshitish ko'nikmasi bilan aloqasi ikki tomondan ko'rinadi: so'zlarni va gaplarni imloviy jihatdan to'g'ri yozish tomoni bo'lib, bu eshitish mahorati bu jihatdan yozish uchun vositadir, sababi yozuvchi oldin eshitmagan so'zlarni yoza olmaydi. Bu esa, so'z va lafzlarni yozishda ularni farqlash va tovushlarni tushinishni taqozo qiladi. Balki tinglovchi so'zlar uchun aqlida zehniy surat chizadi hamda ularni talaffuz qilish va o'qish, yozishga muhtoj paytida aqlida to'playdi hamda saqlaydi. Ikkinchi jihati – yozma ifodalashdir. Chunki inson tasavvur qilish qobiliyatisiz hech bir mavzuda yoza olmaydi. Faqat tasavvur qobiliyati bilangina yoza oladi. Tasavvur oldingi eshitish, ko'rish hamda o'qishdan iborat ko'nikmalarning mahsulidir. Eshitish oldingi mahoratlarni shakllantirish uchun birinchi o'rinda turadi [Abdulbariy, 2012; 101].

Arab tilida yozuv ko'nikmasini shakllantirishda uchta masalaga e'tibor qaratiladi:

- 1) harflar to'g'ri yozish va tinish belgilarini to'g'ri qo'yish;
- 2) jummalarni grammatik va ma'no jihatidan to'g'ri tuzish;
- 3) hajmi, xat turi, yozish qoidalari mos munosib so'zlarning tanlanishi.

Yuqorida zikr qilingan uchta vazifaning yozuvda amalga oshishi uchun yozuvchidan tilning turli sohalarini – harfdan tortib xat va imlo qoidalari, grammatika (sintaksis va morfologiya) va balog'at ilmi, tilning qonun-qoidalariidan tortib adabiyotgacha o'rganishini taqozo qiladi. Bu sohalar agar to'liq va o'zaro bog'langan holda o'qitilsa, og'zaki va yozma nutq insonda mukammal shakllanadi. Sababi – tilning yondosh sohalarini o'rganish yozuvchiga fikrlarni to'plash va yaxshilash

uchun keng imkoniyat beradi.

XULOSA

1. Arab tilida yozuv eng qiyin nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lib, u o‘qish, tinglash va gapirish kabi ko‘nikmalarni egallashda asos vazifasini o‘taydi.

2. Yozuv faol jarayon va u fikrlarni orfografiya va grammatika qoidalariga rioya qilgan holda yozma bayon etishdir. Arab tilida yozuv bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish yozma nutqni o‘rgatishdagi birlamchi vazifa bo‘lishi lozim.

3. Talabalarning arab tilida yozma nutq malakalariga ega bo‘lishi yozuv texnikasi qoidalariga amal qilgan holda harflardan so‘zlar tuzish hamda ularning grammatik shakllarini tanlash va jamlashdan boshlanadi.

4. Talabalarning arab tilida o‘z fikrlari yoki o‘zgarlar nutqini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari ularning zamonaviy axborot jamiyatiga moslashish hamda intellektual, kasbiy va ijodiy tomondan muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulaziz, N.H. (2015). Disertasi diserahkan untuk memenuhi keperluan bagi uazah sarjana pengajian bahasa moden. *Diss. kand. ped. nauk.* Kuala Lumpur.
2. Abdulbariy, H. (2013). *Tashviihul ‘aqlil arobi va hamumut tarbiyatil lug’aviya.* Misr: Al maktabul arobiy.
3. Al-Askariy, A.H. (2009). *Kitabus sna’atayn.* Bayrut: Darul kutubil ‘ilmiya.
4. Al-G‘azzoliy, X.M. (2013). *Min ilmil ‘usul.* Bayrut: Darul kutubul ‘ilmiya.
5. Badruzzaman, A. (2013). Ta’limul maharatil kitaba lig’oyri notiqin. *Sudan: Jurnal Ilmiah didaktika, 14(1), 34-37.*
6. Djaber, T., & Kalinin, A.Y. (2017). *Arabskiy yazik pismennost.* Moskva: Izdatel’stvo “Jivoy yazik”.
7. Hasanov, M. (2019). *Arab tili.* Toshkent: “Global books” nashriyoti.
8. Hoshimov, O‘., & Yoqubov, I. (2003). *Ingliz tili o‘qitish metodikasi.* Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
9. Ibragimov, I.J. (2004). Obucheniye osnovam valadeniya arabskim yazikom. *Diss. kand. ped. nauk.* Pyatigorsk.
10. Jalolov, J. (2012). *Chet tili o‘qitish metodikasi.* Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
11. Jo‘mon, M.A. (2010). *O‘quv va yozuv malakasi.* Toshkent: “Noshirlik yog‘dusi” nashriyoti.
12. Kaplich, L.V. (1996). Nachalo obucheniya produktivnoy pismennoy rechi v lingvisticheskoy vuz. *Diss. kand. ped. nauk.* Moskva.
13. Kreer, M.Y. (2007). Kriterii otsenki inoyazichnoy pismenniy rechi uchashixsya na rubeje shkola-vuz. *Diss. kand. ped. nauk.* Sankt-Peterburg.
14. Kudryashova, O.V. (2005). Metodika poetapnogo formirovaniya kommunikativniy kompetensi v pismennoy rechi. *Diss. kand. ped. nauk.* Tambov.
15. Milrud, R.P. (1997). *Metodika obucheniya inoyazichnoy pismennoy rechi.* Moskva: Prosvesheniye.
16. Muhammad, I. (2009). *Toriqi tadrisk lug‘atil arobiya va tarbiyatut diyiniya.* Al-Qohira: Darulfikr.
17. Munir, Z. (1985). Metodika obucheniya pismennoy rechi v problem kontrolya urovnya yey sformirovannosti na zanyatiyax po russkomu yaziku v usloviyax arabskoy yazikovoy sredi. *Diss. kand. ped. nauk.* Moskva.
18. Nosirov, O., & Yusupov, M. (2002). *“An-Na’im” arabcha-o‘zbekcha lug‘at.* Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti.
19. Rixsiyeva, M.M. (1998). Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili

- darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish. *Ped. fan. nom. diss.* Toshkent.
20. Rogova, G.V. (1991). *Metodika obucheniya inostrannim yazikam v sredney shkole*. Moskva: Prosvesheniye.
 21. Salisheva, Z.I. (2019). O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. *Ped. fan. nom. dis.* Toshkent.
 22. Samarina, N.V. (2016). Formirovaniye kompetensii inoyazichnoy pismennoy rechi shkolnikov s pomoshyu elektronix didakticheskix sredstv. *Avtoref. diss. kand. ped. nauk.* Nijniy Novgorod.
 23. Umarova, N.Z. (2007). Talabalarning o'zbekcha yozma nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi. *Ped. fan. nom. dis.* Toshkent.
 24. Husayn, Sh.M. (2010). *Subxul 'asha fi sona'atil insha*. Bayrut: Darulfikr.
 25. Husayn, N.M. (2013). Maharatul kitaaba va tatbiqotiha. *Majallatul 'ulumi val buhusilislamiya*, 6(1), 2-10.

REFERENCES

1. Abdelbary, H. (2013). *Distortion of the Arab mind and the concerns of linguistic education*. Egypt: Arab office.
2. Abdulaziz, N.H. (2015). Use of imitation in arabic language writing among university students. *PhD thes. in ped. scien.* Kuala Lumpur.
3. Al-Askari, A.H. (2009). *Al-Sanaatayn book*. Beirut: Scientific Books House.
4. Al-Gazzoli, Kh.M. (2013). *From asset science*. Beirut: Scientific books House.
5. Badruzzaman, A. (2013). Teaching writing skills to non-Arabic speakers. *Journal of Scientific Didactics*, 14(1), 34-37.
6. Djaber, T., & Kalinin, A.Y. (2017). *Arabic language writing*. Moscow: "Living Language" Publishing House.
7. Hasanov, M. (2019). *Arabic language*. Tashkent: "Global Books" Publishing House.
8. Hashimof, O., & Yakubov, I. (2003). *Methodology of teaching English*. Tashkent: "East" Publishing House.
9. Hussein, Sh.M. (2010). *It was the worst nightmare in the construction industry*. Beirut: Dar Al-Fikr.
10. Husseins, N.M. (2013). Writing skill and its applications. *Journal of Islamic Sciences and Research*, 6(1), 2-10.
11. Ibragimov, I.J. (2004). My language is Arabic. *PhD thes. in ped. scien.* Pyatigorsk.
12. Jalolov, J. (2012). *Foreign language teaching methodology*. Tashkent: "Teacher" Publishing House.
13. Joman, M.A. (2010). *Academic and writing skills*. Tashkent: "Publication Lighting" Publishing House.
14. Kaplich, L.V. (1996). The beginning of teaching productive writing in a linguistic university. *PhD thes. in ped. scien.* Moscow.
15. Kreer, M.Y. (2007). The criterion is that the foreign-language written speech of students at the turn of shul-university. *PhD thes. in ped. scien.* Petersburg.
16. Kudryashova, O.V. (2005). Methodology for the phased formation of communicative competencies in written speech. *PhD thes. in ped. scien.* Tambov.
17. Milrud, R.P. (1997). *Methods of teaching foreign language writing*. Moscow: Enlightenment.
18. Mohamed, I. (2009). *Methods of teaching Arabic language and religious education*. Cairo: Darulfikr.
19. Munir, Z. (1985). Methods of teaching written speech in the problems of controlling the level of formation in the classroom in the Russian language in the conditions of the Arabic language environment. *PhD thes. in ped. science.* Moscow.
20. Nosirov, O., & Yusupov, M. (2002). *"An-Na'im" Arabic-Uzbek dictionary*. Tashkent: People's Publishing House named after Abdullah Qadiri.
21. Rikhsiyeva, M.M. (1998). Teaching students to compose texts in Uzbek language classes of

- Russian-language schools. *PhD thes. in ped. scien.* Tashkent.
22. Rogova, G.V. (1991). *Methodology of foreign studies in secondary school.* Moscow: Enlightenment.
 23. Salisheva, Z.I. (2019). Improving the methodology of developing students' monologue speech in Uzbek language classes. *PhD thes. in ped. scien.* Tashkent.
 24. Samarina, N.V. (2016). Formation of the competence of foreign language written speech of schoolchildren with the help of electronic didactic tools. *PhD thes. in ped. scien.* Nizhny Novgorod.
 25. Umarova, N.Z. (2007). The method of using modern technologies in the development of students' Uzbek written speech. *PhD thes. in ped. scien.* Tashkent.